

LABORATORIYA MASHG`ULOTI №2

MAVZU: OQSILLARGA XOS RANGLI REAKSIYALAR

Darsning maqsadi: Oqsillarga xos rangli reaksiyalar haqida ma`lumotga ega bo`lish laboratoriya tajribalari asosida egallangan bilimlarni mustahkamlash, ko`nikmalarni hosil qilish.

Kerakli asbob va reaktivlar: shtativ, spirit lampa yoki gaz gorelka, pipetkalar, tuxum oqsilining 1% li eritmasi, 5 marta suyultirilgan qon zardobi, bug`doy oqsilining 1 % li eritmasi, natriy gidroksidning 10%li eritmasi mis (II)-sulfatning 1 % li eritmasi, alanin eritmasi, ningidrinning 0,5 % li eritmasi, tirozining 0,1 % li eritmasi, konsentrangan nitrat kislota, fenolning 0,1 % li eritmasi, Millon reaktiv, natriy gidroksidning 30 % li eritmasi, qo`rg`oshin asetatning 5 % li eritmasi, argininning 0,05 %li eritmasi, naftolning spirtdagi 0,1 % li eritmasi natriy gipobromitning 2 % li eritmasi, triptofanning 0,05 % li eritmasi, muz – sirka kislota, konsentrangan sulfat kislota.

Ishning natijalari jadval ko`rinishida ifodalanadi.

No	Reaksiyaning nomi	Tekshirilay otgan manba	Qo`llanila yotgan reaktivlar	Kuzatilgan rang	Reaksiya nimaga bog`liq


Xulosa:

1-tajriba. Biuret reaksiyası

Biuret reaksiyası yordamida oqsil va polipeptidlar tarkibidagi peptid bog`lari - C – N – aniqlanadi. Biuret reaksiyasini eng kamida 3 ta aminokislota qoldig`i, ya`ni ikkita peptid bog`i bor moddalar berishi mumkin.


Kuchli ishqoriy sharoitda biuret ($\text{NH}_2 - \text{CO} - \text{NH} - \text{CO} - \text{NH}_2$), oksamid ($\text{NH}_2\text{-CO} - \text{CO} - \text{NH}_2$), polipeptid va oqsil eritmalariga mis tuzlari qo`silsa, ko`k binafsha, qizil – binafsha rang hosil bo`ladi.

Peptid bog`ni hosil qiluvchi gruppa (-CO-NH-) ishqoriy muhitda tautomerenol formasida bo`ladi:



Kuchli ishqoriy muhitda hosil bo`lgan gidroksogruppa dissosiyalanadi, natijada manfiy zaryad hosil bo`ladi, bu esa mis ioni bilan tuzsimon bog` hosil qilishiga imkon beradi, bundan tashqari, peptid bog`ni hosil qilishda ishtirok etayotgan azot atomlari bilan ham koordinatsion bog` hosil qiladi. Bu misli kompleks barqaror birikma bo`lib, paydo bo`lgan rang ancha uzoq saqlanadi.

Polipeptidlarning misli kompleksini sxematik ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:



Biuret kompleksi rangining ravshanlik darajasi oqsil konsentratsiyasiga, eritmadagi mis tuzining konsentratsiyasiga bog`liq.

Ishning bajarilishi. 3 ta probirka olib, birinchisiga 5 tomchi tuxum oqsilining 1 % li eritmasi, ikkinchisiga 5 tomchi 5 marta suyultirilgan qon zardobi, uchinchisiga ham shuncha miqdorda bug`doy oqsilining 1 % li eritmasi solinib, hamma pirobirkaga 10 tomchidan 10 % li o`yuvchi natriy eritmasi va 1 tomchidan mis sulfat eritmasidan quyiladi. Uchala probirkada ham qizil binafsha yoki ko`kish – binafsha rang hosil bo`ladi.

2 - tajriba. Ningidrin reaksiyasi.

Ningidrin reaksiyasi erkin α -aminogruppa uchun xos reaksiya hisoblanadi. α -aminogruppalar, petidlar va oqsillarning molekulalarida erkin α -aminogruppa bo`ladi. Shuning uchun yuqoridagi moddalarning eritmalariga ningidrin qo`shib qizdirilganda ko`k yoki ko`kish – binafsha rang paydo bo`ladi. Ningidrin ta'sirida erkin α -aminograppasi bor aminokislota, peptid yoki oqsillar oksidlanish yo`li bilan dezaminlanadi, dekarboksillanadi, natijada aldegid hosil bo`ladi. Bu vaqtida ningidrin qaytariladi va ajralib chiqqan NH_3 yordamida ikkinchi qaytarilmagan ningidrin molekulasi bilan bog`lanib ko`k binafsha, prolin bilan esa sariq rangli kompleks hosil qiladi. Ningidrin reaksiyasining ximiyaviy mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin.

Ishning bajarilishi. 3 ta probirka olib, birinchisiga 5 tomchi tuxum oqsili, ikkinchisiga 5 tomchi bug`doy oqsili, uchinchisiga 5 tomchi alanin eritmasidan tomizilib, ustiga 5 tomchidan 0,5 % li ningidrin eritmasidan quyib, 1-2 minut qaynatiladi. Probirkalardagi aralashmalar avval pushti-binafsha yoki ko`kish – binafsha rangga bo`yaladi. Vaqt o`tishi bilan eritma ko`karadi.